

AXBOROT-TEXNOLOGIK KOMPETENTLIK TUSHUNCHASI VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

Jo'liboyeva Sevinch Abloqul qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Magistratura mutaxassisligi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborot-texnologik kompetentlik tushunchasi, shu bilan birgalikda kompetentlik, axborot kompetentligi, texnologik kompetentlik tushunchalari ham yoritib berilgan. Axborot-texnologik kompetentlikning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *kompetentlik, axborot kompetentligi, texnologik kompetentlik, zamonaviy texnologiyalar, ilg'or tajribalar, pedagogik jarayon.*

KIRISH

Jadallik bilan rivojlanib borayotgan zamonda ta'lim jarayonlari ham zamonga muvofiq rivojlanib bormoqda. Ta'lim jarayonlarining zamonga muvofiqlashuviga misol qilib zamonaviy axborot texnologiyalarining kirib kelishi, ta'lim jarayonlarida ilg'or xorijiy tajribalarning qo'llanilishini misol qilib aytishimiz mumkin.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini pedagogik jarayonda qo'llash uchun avvalo pedagog kadrlarning axborot-texnologik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Kompetentlik” tushunchasining mazmuni va mohiyatini o'rganish unga nisbatan bir nechta izohlarning mavjudligini ko'rsatdi. “Kompetentlik” tushunchasi turli fan sohalaridagi olimlar tomonidan qo'llaniladi. Metodik va psixologik adabiyotlarda “kompetentlik” (lot. “competo”, ingl. “competens” (competents) – qobiliyat, kompetentli, kompetentlar) tushunchasi shunday talqin etiladi: biror narsani muhokama qilmoq, bilimlarni egallash; biror masala haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish; yaxshi ma'lumot berilgan masalalar sohasi; muayyan sohaga tegishli, qobiliyatli, bilimdon va yaxshi o'zlashtiruvchi; biror sohada malakali, bilimdon, hurmatga sazovor shaxs. Kompetentlik tushunchasini kompetentlikning turli ko'rinishlariga murojaat qilish asosida ko'rib chiqilgan.

“Kompetentlik” tushunchasini nazariy jihatdan talqin qilishda M.K. Kabardov, Ye.V. Arsishevskaya o'ziga xos yondashuvni ilgari surgan, ya'ni “kompetentlik” va “qobiliyat” tushunchalarini o'zaro solishtirish asosida izohlashga harakat qilishgan.[1]

Axborot texnologiyalari bilan ishlash kompetensiyasi – zamonaviy texnologiyalarni samarali qo'llash va ulardan foydalana bilish Axborot kompetensiyasining tarkibiy qismlari ilmiy adabiyotlarda turlicha tasniflangan. Jumladan, S.V.Trishina quyidagilarni ko'rsatib o'tgan:

1. Kognitiv – bilimlar va axborotlardan amaliyotda to'g'ri foydalanishni

ta'minlashga qaratilgan. Ushbu komponent o'z tarkibiga quyidagi tayanch jarayonlarni mujassamlashtiradi: tahlil, qayta ishlash, qo'lga kiritish, uzatish, bashorat qilish, taqdim qilish, axborotlarni saralash, saqlash va boshqalar.

2. Qadriyatli-motivli yondashuvga asoslanish axborotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Bularning barchasi o'quvchilarning bilim doiralarini kengaytirish, natijada esa bilimlar majmuini taqdim etish bilan belgilanadi.

3. Texnik-texnologik komponent o'zida axborot texnologiyalari vositasida axborotlar bilan ishlash jarayonini mujassamlashtiradi. Bu jarayonda o'quvchilar turli rusumdagi kompyuterlar bilan ishlaydilar.

4. Kommunikativ komponent esa muloqot va axborotlarni uzatish uchun zarur bo'lgan nutq va boshqa ifoda belgilari bilan ishlash jarayonini qamrab oladi.

5. Refleksiv komponent o'quvchida axborotlar olamida o'z o'rnini anglash, axborot maydonida o'z harakatlarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirildi. [2]

Axborot texnologiyalaridan unumli foydalana olish uchun axborot-texnologik kompetentlikni shakllantirish muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda xohlaymizmi yo'qmi ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish uchun ham, darslarni yanada samarali tashkil etishda ham axborot texnologiyalaridan foydalanishni o'rganishimiz zarur.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat. Shu kabi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uch yo'nalishda ilgari bo'lmaganjuda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tish imkon beradi:

1) Bilimlarni egallash yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish natijasida ta'lim olish yo'lidagi inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Agar ta'lim kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga olib kelsa, axborotlar bilimlar to'plash jarayonining mazmunli jihatini ta'minlash uchun kerak b'ladi. Internet va «Butun jahon tarmog'i» barcha ijtimoiy qatlamdagi insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo'lib xizmat qiladi.

2) Ijtimoiy hayotda ishtirok etish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Internet tarmog'i orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyati oxirgi yillarda ko'plab global fuqarolik tashabbuslarini tarqatishga imkon berdi. Misol uchun, ta'lim tizimida qayta aloqani ta'minlash harakati.

3) Iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va ular bilan bog'liq sohalar hamda ta'lim tizimi eng jadal rivojlanayotgan sektorlar hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborotlar va aloqadan foydalanish imkoniyatini keskin kengaytiradi. Elektron pochta, elektron kutubxonalar -saytlar ta'lim tizimi uchun cheksiz

imkoniyatlar beradi, har qanday chegaralarni yo'qotadi, dunyoning har qanday nuqtasidan o'quv va ilmiy axborotlarni olish imkonini yaratadi.[3]

XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, axborot-texnologik kompetentlik bu-axborot texnologiyalaridan foydalana olish, ularni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib u ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonlari bilan integratsiya qilish ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi va yanada qiziqarli tashkil etishga ko'maklashadi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarda axborot-texnologik kompetentlikni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Tojiboyev. Ilmiy-pedagogik manbalarda kompetentlik va kasbiy grafik kompetentlik raqamli texnologiyalar tushunchalarining talqin etilishi. Norss 2 (0002),2024
2. С.В.Тришина Информационная компетентность как педагогическая категория // Интернет-журнал «Эйдос». 2005. 10 сент. // Режим доступа: <http://www.eidos.ru/journal/2005/0910-11.htm>.
3. D.Egamberganova. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining tutgan o'rni. Academic research in educational sciences 3(4), 1147-1154, 2022